

“Kelajak soati” darsining oliy ta’lim muassasalari uchun mashg‘ulot ssenariysi:

32-mavzu: “Innovatsion fikrlash”

Annotatsiya: Ushbu dars ishlanmasi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda innovatsion fikrlashning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o‘rni, ijodiy tafakkur va yangicha yondashuvning ahamiyati talabalarga sodda, ravon va qiziqarli tarzda tushuntirib beriladi. Dars davomida talabalarga innovatsiya – bu yangilik yaratish, mavjud muammolarga noodatiy yechim topish, jamiyat rivoji uchun yangi g‘oyalar ishlab chiqish vositasi ekani ko‘rsatib beriladi. Muntazam ravishda yangicha fikrlashni mashq qilish insonga kengroq dunyoqarash, muloqot madaniyati, analitik tafakkur va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishi alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, talabalar innovatsion fikrlashni rivojlantirishning amaliy bosqichlari – muammoni tahlil qilish, g‘oyalar generatsiyasi, kreativ yechimlar ishlab chiqish, tanqidiy fikrlash, dizayn-o‘ylash (design thinking) metodlaridan foydalanish, jamoada ishlash va g‘oyani himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar bilan tanishtiriladi. Dars jarayonida talabalarga “yangicha fikrlashni qadrlash” – bu o‘z ustida muntazam ishlash, o‘rganishga ochiq bo‘lish, o‘zini intellektual va ijtimoiy jihatdan boyitish ekani singdiriladi. Mashg‘ulot davomida muvaffaqiyatli startaplar misollari, mashhur innovatorlar fikrlari, qisqa videoroliklar, real hayotdan olingan ijodiy yechimlar, amaliy topshiriqlar va guruhviy muhokamalar qo‘llanilib, talabalar uchun yanada qiziqarli, interaktiv va esda qolarli muhit yaratiladi. Ushbu usullar talabalarda mustaqil fikrlashga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytiradi, jamoada fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda ularni kelajakda raqobatbardosh, tashabbuskor va yangilik yaratishga qodir mutaxassis sifatida tayyorlaydi.

Aniq maqsadlar:

- Talabalarga innovatsion fikrlashning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o‘rni, zamonaviy kompetensiyalar shakllanishidagi ahamiyatini ilmiy va amaliy misollar orqali tushuntirish.
- Yangicha fikrlash, kreativ yondashuv, tanqidiy tahlil va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarining rivojlanish jarayonini anglashga o‘rgatish.
- Talabalarda innovatsiyaga bo‘lgan qiziqish, tashabbuskorlik, o‘zini intellektual jihatdan boyitish va mustaqil o‘rganish tuyg‘usini shakllantirish.
- Talabalarni g‘oya yaratish, ularni tahlil qilish va boshqalar bilan baham ko‘rish orqali fikr almashuv va jamoaviy ishlash jarayonlariga yo‘naltirish.

Asosiy g‘oyalar: Innovatsion fikrlash bu shunchaki yangilik yaratish emas, balki dunyoni boshqacha ko‘ra olish, mavjud jarayonlarga yangi qiymat qo‘shish demakdir. Innovatsion fikrlovchi talaba har bir muammoni imkoniyat sifatida ko‘radi, ijod qiladi, tahlil qiladi va yangi g‘oya orqali o‘zini va jamiyatni

rivojlantiradi. Bunday yondashuv insonni bilimli, fikrlovchi, moslashuvchan hamda kelajak kasblariga tayyor shaxs sifatida shakllantiradi. Har bir talaba innovatsion fikrlash orqali o'z qarashlarini boyitadi, yangi bilimlar yaratadi va ularni amaliyotga tatbiq etishni o'rganadi. Bugungi kunda yetakchi olimlar, muhandislar, IT mutaxassislar, tadbirkorlar va rahbarlar barchasi yangicha fikr yuritish, muammoga kreativ yondashish va tezkor qaror qabul qila olish qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Shu sababli har bir talaba: yangicha o'ylashi, g'oyalarni yaratishi va sinab ko'rishi, muammolarni tahlil qilib, kreativ yechimlar topishi, o'z g'oyalarini atrofdagilar bilan baham ko'rishi kerak. Innovatsion fikrlash bu nafaqat kasbiy muvaffaqiyat kaliti, balki tashabbuskorlik, mas'uliyat, kreativlik va jamoaviy hamkorlik kabi eng chiroyli fazilatlarni shakllantiruvchi jarayondir.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy:

- Talabalar “innovatsiya”, “innovatsion fikrlash”, “kreativ yechim”, “yangilik yaratish” tushunchalarining mazmunini anglaydi.
- Innovatsion fikrlashning shaxsiy rivojlanish, kasbiy o'sish va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida fundamental bilimga ega bo'ladi.
- Yangicha fikrlash, noodatiy yondashuv va o'zaro g'oyalar almashinuvi zamonaviy intellektual va kasbiy fazilatlar asosini tashkil etishini tushunadi.

2. Hissiy va qadriy:

- Talabalarda yangilikka qiziqish, kreativ fikrga hurmat, o'z g'oyalarini boshqalar bilan baham ko'rishga bo'lgan ishtiyoq kuchayadi.
- Innovatsion jarayonlar orqali ijodiy fikrlash, tafakkur kengligi va intellektual rivojlanishga nisbatan ehtirom shakllanadi.
- G'oya yaratish, uni rivojlantirish va jamiyatga foydali bo'lish uchun qo'llashning ahamiyati chuqur anglanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

- Talabalar muammoni tahlil qilish, g'oyalar generatsiyasi (brainstorming), kreativ yechim ishlab chiqish kabi innovatsion ko'nikmalarni shakllantiradi.
- Real muammolarni hal qilishda “design thinking”, analitik tahlil, prototiplash va ijodiy yondashuv usullaridan foydalanadi.
- Shaxsiy hayotida va o'qish jarayonida yangilikka ochiq bo'lish, kreativ yechim izlash va o'z ustida ishlash odatini yo'lga qo'yadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- Talabalar innovatsion fikr almashish, jamoada ishlash, g'oyalarni muhokama qilish va professional kommunikatsiya madaniyatini rivojlantiradi.
- Yangicha yondashuv va innovatsion tafakkur orqali jamiyatda ijodkorlik, bilim va tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi ijobiy muhit yaratishga hissa qo'shadi.

- Innovatsion fikrlash, kreativ yechimlar va ijtimoiy foydali g'oyalar – zamonaviy jamiyatning yuksak intellektual mezonini ekanini anglaydi.

Metapredmet yondashuv: Bu yondashuv talabalarning turli fanlar va hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan universallashtirilgan kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

- Tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmasi: Talabalar innovatsiya mohiyatini anglaydi, g'oyalarni tahlil qiladi, ularning samaradorligini baholaydi va real vaziyatlarga tatbiq etadi.

- Innovatsion dunyoqarash shakllanishi: Talabalar yangilikka ochiq bo'lish, kreativ fikrlash, tashabbus ko'rsatish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga e'tibor qaratish ko'nikmalarini egallaydi.

- Jamoada ishlash va ijtimoiy muloqot: Guruhli topshiriqlar, fikr almashish va loyihaviy faoliyat jarayonida talabalar hamkorlik, bahs-munozara, fikrni asoslash va qo'llab-quvvatlash madaniyatini o'zlashtiradi.

- Axborotni qidirish va baholash: Talabalar innovatsion g'oyalar, ilmiy maqolalar, startap misollari va zamonaviy yechimlarni mustaqil izlab topadi, tahlil qiladi va amaliyotda qo'llashni o'rganadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: Mashg'ulot bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari, kreativ topshiriqlar va qo'shimcha innovatsion materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

mashg'ulot ssenariysi;

uslubiy tavsiyalar;

innovatsion fikrlashga oid videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar va o'yinlar, taqdimot (slaydlar).

1. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

Pedagog: Assalomu alaykum, hurmatli talabalar! Bugungi mavzumiz “Innovatsion fikrlash”, deb nomlanadi.

Bugungi kunda kundalik hayotimiz, ta’lim jarayoni va kasbiy faoliyatimizning deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalar, turli gadjetlar, sun’iy intellekt va onlayn platformalardan foydalanamiz. Har soniya yangiliklar almashinadigan, axborotning haddan ziyod ko‘p bo‘lgan sharoitida yangicha fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammoni kreativ hal etish kabi ko‘nikmalar har bir talaba uchun zarur kompetensiyaga aylanmoqda.

Mana shunday tezkor raqamli jarayonlar fonida talabalarning o‘z g‘oyalarini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashi, yangi yechimlar izlashni o‘rganishi juda muhim. Chunki innovatsion tafakkur – bu faqat texnologiyani bilish emas, balki uni to‘g‘ri tahlil qilib, yangi g‘oya yaratishga yo‘naltira olish qobiliyatidir.

Qani, kim aytadi, innovatsiya o‘zi nima?

Fikrlash deganda nimani tushunasiz?

Innovatsion fikrlash nima?

Talabalar javob berishadi.

Pedagog: Juda yaxshi fikrlar aytdingiz. Darhaqiqat, innovatsion fikrlash bizga yangilik yaratishni, mavjud muammolarga noodatiy yechim topishni, fikrlash doiramizni kengaytirishni o‘rgatadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda innovatsion siyosatni izchil yo‘lga qo‘yib, “Smart shahar”, “Smart maktab”, elektron hukumat va zamonaviy IT infratuzilmasini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratdi.

Shuningdek, yoshlar uchun zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash, IT sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozir sizlar bilan shu islohotlar aks etgan qisqa videoni tomosha qilamiz

Vizual kontent

Innovatsiya – bizning kelajagimiz!

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/554

Video muhokamasi (2 daqiqa).

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

Pedagog: Bugungi kunda atrofimizga e’tibor bersak, kundalik hayotimizni tubdan o‘zgartirgan ko‘plab texnologiyalarni ko‘ramiz. Smartfonlar, zamonaviy avtomobillar, raqamli xizmatlar – bularning barchasi bir paytlar oddiy g‘oya bo‘lgan, keyinchalik esa insonlar hayotini yengillashtirgan innovatsiyalarga

aylangan. Bu yangiliklar ortida esa aniq shaxslar – muammoni boshqacha ko‘ra olgan va uni yechimga aylantira olgan ixtirochilar turadi. Endi ana shunday insonlar haqidagi qisqa videorolikni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Uch mashhur innovator hikoyasi

<https://youtu.be/PNIHHFoXa50>

Pedagog: Bu videolavha orqali qanday xulosalar chiqardingiz?

Sizningcha, O‘zbekistonda qanday muammolarga innovatsion yondashuv ehtiyoji mavjud?

Talabalar fikrlari tinglanadi.

Pedagog: Barakalla! Ajoyib fikrlarni aytdingiz. Endi biz bevosita innovatsion fikrlashni ochib beruvchi asosiy tezislarga o‘tamiz.

Birinchi tezis: muammo – innovatsiyaning nolinchi nuqtasi

Pedagog: Ko‘pincha innovatsiya “qiziqarli g‘oya” bilan tenglashtiriladi. Aslida esa g‘oya faqat boshlanish nuqtasi. Innovatsiya bo‘lishi uchun u muayyan muammoni hal qilishi va amaliy qiymat yaratishi kerak.

Masalan, talabalar hayotida eng ko‘p vaqt oladigan yoki noqulaylik tug‘diradigan jarayon qaysi?

Talabalar javoblari doskaga yoziladi va keyingi muhokama uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagog: Keling, bitta misolni birgalikda ochib ko‘ramiz. Masalan, “ko‘p vaqt oladigan byurokratik jarayonlar”. Nega bu vaqt oladi?

Talabalar sabablarni aytadi: ortiqcha bosqichlar, ma’lumotlar takroran so‘ralishi, tizimlar o‘zaro bog‘lanmaganligi va hokazo. Har bir sabab doskaga yoziladi.

Pedagog: Endi e’tibor bering, biz muammoni allaqachon bo‘laklarga ajratdik. Har bir sabab – bu alohida yechimning boshlang‘ich nuqtasi. Demak, innovatsiya aniq muammoga aniq yechim taklif qilishdir.

Keyingi bosqichda talabalar kichik guruhlariga bo‘linadi va tanlangan muammo ustida ishlaydi.

Pedagog: Har bir guruh muammoning bitta sababini tanlaydi va unga eng sodda, lekin ishlaydigan yechim taklif qiladi. Yechim mukammal bo‘lishi shart emas, muhim jihati – u real hayotda qo‘llanishi mumkin bo‘lsin.

Guruhlar 5-7 daqiqa davomida muhokama qiladi, so‘ng har biri qisqa taqdimot qiladi. Har bir taqdimotdan keyin pedagog quyidagi savollar orqali fikrni chuqurlashtiradi:

- Bu yechim aynan qaysi muammoni hal qilyapti?
- Uning foydalanuvchiga real foydasi nimada?
- Uni amaliyotga joriy qilishda qanday to‘siqlar bo‘lishi mumkin?

Yakunida pedagog umumlashtiradi.

Pedagog: Hozir sizlar ishni oddiy shikoyatni tahlil qilishdan boshlab aniq yechimgacha keldingiz. Bu – innovatsion fikrlashning birinchi va eng muhim bosqichi. Ya’ni, muammoni to‘g‘ri qo‘yish va uni qismlarga ajratish. Agar shu bosqich to‘g‘ri bajarilsa, yechim topish ancha osonlashadi.

Ikkinchi tezis: innovatsion fikrlash savol berishdan boshlanadi

Pedagog: Har qanday tizimga tanqidiy qarash, “nega aynan shunday?” degan savolni berish innovatsiyaning boshlang‘ich nuqtasidir. Qabul qilingan va bugun ishlayotgan qoidalar balki optimal yechim emas, shunchaki odat natijasidir.

Bu yondashuv sizdan faqat tanqid qilishni emas, balki muqobil fikrni shakllantirishni ham talab qiladi. Ya’ni “nega aynan shunday?” degan savol ortidan “boshqacha bo‘lishi mumkinmi?” degan izlanish kelishi kerak. Shu nuqtada tizimni buzish emas, uni yaxshilashni maqsad qilish muhim: qaysi bosqich ortiqcha, qaysi jarayon takroriy, qayerda vaqt yo‘qotilmoqda. Tanqidiy fikrlash aynan shu joyda innovatsion fikrlashga ulanadi, chunki muammo aniq ko‘rinish olgan sari yechim ham aniq shakllana boshlaydi.

Shuni anglab yetishimiz kerakki, har qanday tizim bir vaqtlar muayyan sharoit va ehtiyoj asosida yaratilgan. Vaqt o‘tishi bilan esa sharoit o‘zgaradi, lekin tizim o‘zgarishsiz qoladi va natijada u samarasiz ishlay boshlaydi. Innovatsion fikrlash ana shu nomuvofiqlikni sezish qobiliyatidir. Kimki mavjud holatni “normal” deb qabul qilish bilan cheklanmasa, balki uni zamon talabi bilan solishtirib ko‘ra olsa, aynan o‘sha inson yangi va samarali yechimlarni taklif qila oladi.

Uchinchi tezis: g‘oya sinovdan o‘tishi kerak

Pedagog: Innovatsiya – bu jarayon. G‘oya – prototip – test – natija ketma-ketligi orqali u real qiymatga aylanadi. Agar g‘oya sinovdan o‘tmasa, u faqat nazariy fikr bo‘lib qoladi.

Endi e’tibor qiling, muammoni aniqlashning o‘zi yetarli emas. Innovatsion fikrlash keyingi bosqichni – yechimni sinab ko‘rish mumkin bo‘lgan shaklga keltirishni talab qiladi. Ya’ni, g‘oya qanchalik qiziqarli bo‘lmasin, agar uning qanday ishlashi aniq tasavvur qilinmasa, bu hali innovatsiya emas. Shu sababli biz “prototip” tushunchasiga murojaat qilamiz. Prototip – bu yechimning eng sodda, lekin tushunarli modeli. U texnik jihatdan mukammal bo‘lishi shart emas, lekin unda bitta savolga javob bo‘lishi kerak: bu yechim real hayotda qanday ishlaydi?

Masalan, agar muammo vaqt yo‘qotish bilan bog‘liq bo‘lsa, prototip bu jarayonni qisqartiradigan yangi tartib yoki algoritm bo‘lishi mumkin. Agar muammo ma’lumot yetishmasligi bo‘lsa, prototip oddiy platforma yoki xizmat modeli sifatida tasavvur qilinadi. Muhimi, yechim aniq bir muammoni nishonga olishi, foydalanuvchi uchun qanday qiymat yaratishini ko‘rsatishi va amaliy jihatdan tasavvur qilinishi kerak. Innovatsiya aynan shu nuqtada – g‘oya real ishlash mexanizmiga ega bo‘lganda boshlanadi.

To‘rtinchi tezis: xato innovatsiyaning ajralmas qismi

Pedagog: An’anaviy yondashuvda xato – salbiy natija. Innovatsion yondashuvda esa xato – yangi bilim manbai. Har bir muvaffaqiyatsiz urinish keyingi qarorni aniqlashtiradi.

Masalan, siz oxirgi marta qilgan xatoyingizdan qanday xulosa chiqardingiz? Qanday bilim oldingiz?

Bir nechta talabalar fikri tinglanadi, umumiy xulosa qilinadi.

Pedagog: Demak, aytilgan fikrlarni umumlashtirsak, har bir xato ichida ma’lumot yashiringan bo‘ladi: nimani noto‘g‘ri baholadik, qayerda shoshildik, qaysi qaror yetarlicha asoslanmadi. Agar shu savollar berilsa, xato tajribaga, tajriba esa bilimga aylanadi.

Shuning uchun innovatsion fikrlashda xatodan qochish emas, balki uni to‘g‘ri tahlil qilish muhim. Xatodan xulosa chiqarilgan har bir urinish keyingi qarorni aniqroq, yechimni esa samaraliroq qiladi. Natijada muvaffaqiyat tasodif emas, balki ketma-ket o‘rganilgan saboqlar yig‘indisiga aylanadi.

Keling, hozir o‘z kreativ g‘oyasini avval innovatsiyaga, so‘ng startapga aylantirgan vatandoshimiz bilan suhbatni tomosha qilamiz. U o‘z muvaffaqiyatli startapiga yetib kelguncha o‘tgan yo‘li, qilgan xatolari, yutuqlarining bahosi va tavsiyalari bilan o‘rtoqlashadi.

Vizual kontent

“Juda ko‘p xato qilganman” – Otabek Suvonov

<https://youtu.be/nOiREFsUmcQ>

Pedagog: Ko‘rganingizdek, biznesda va innovatsiyalar yaratishda xatolarning o‘ziga yarasha o‘rni bor. Ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarib yo‘lida davom etganlar yutadi.

Beshinchi tezis: innovatsiya jamoaviy fikrlash mahsuli

Pedagog: Davom etamiz. Bugungi kunda murakkab muammolarni faqat bitta soha doirasida hal qilish deyarli imkonsiz. Masalan, oddiy ko‘rinadigan xizmatni

olaylik: unda texnologiya, iqtisodiy samaradorlik, foydalanuvchi qulayligi va hatto psixologik omillar bir vaqtda ishlaydi. Agar muammoni faqat texnik tomondan ko'rsak, yechim ishlamasligi mumkin; faqat iqtisodiy tomondan yondashsak, u foydalanuvchi uchun qulay bo'lmasligi ehtimoli bor. Demak, har bir yechim turli nuqtayi nazarlarning kesishgan joyida shakllanadi.

Innovatsion fikrlash aynan shu yerda kengayadi, inson o'z bilim doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki boshqa yondashuvlarni ham hisobga oladi. Turli sohalarining birlashuvi yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi, chunki har bir yo'nalish muammoga o'zicha qaraydi. Natijada esa oddiy emas, balki kompleks va barqaror yechim paydo bo'ladi. Shuning uchun ham zamonaviy innovatsiyalar ko'pincha fanlar kesishgan nuqtada tug'iladi.

Oltinchi tezis: to'siqlar innovatsiyani rag'batlantiradi

Pedagog: Ko'pincha innovatsiya aynan resurslar yetishmagan sharoitda paydo bo'ladi. Cheklovlar insonni yangi yechim izlashga majbur qiladi.

Resurslar cheklanganida inson odatdagi yo'l bilan emas, balki muqobil yo'llar orqali fikrlashga majbur bo'ladi. Bu esa mavjud imkoniyatlarni qayta baholashga olib keladi: nima ortiqcha, nimani soddalashtirish mumkin, qaysi jarayonni qisqartirish hisobiga samaradorlikni oshirish mumkin. Aynan shu bosqichda kreativlik kuchayadi, chunki tayyor va qulay variantlar yo'qligi yangi kombinatsiyalar va noodatiy yondashuvlarni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, cheklovlar to'siq emas, balki yo'naltiruvchi omil hisoblanadi. Ular fikrlashni tartibga soladi, ortiqcha variantlarni chiqarib tashlaydi va diqqatni eng muhim masalaga qaratadi. Natijada yechimlar nafaqat yangi, balki ko'pincha ancha samarali va tejamkor bo'ladi. Innovatsion fikrlash aynan shunday sharoitda charxlanadi – imkoniyatlar kamaygan sari, yechimlar aniqlashadi.

Tasavvur qilaylik, sizda bir g'oya bor. Ammo uni amalga oshirish uchun joy, laboratoriya, texnikalar kerak, sinovlar o'tkazishingiz kerak. Albatta, bunga mablag' ham kerak bo'ladi. Shunday joyni qanday topsam ekan deb o'ylaysiz. O'zbekistonda innovatsiyalar uchun yaratilgan katta sharoitlardan biri – "Yoshlar texnoparklari"dir. Bular shunday ekotizimki, yangi g'oyasi bor har bir insonga o'z g'oyasini amalga oshirishga imkon beradi. Hozir shunday texnoparklardan biriga qilingan videosayohatni tomosha qilamiz. Monitorga qaraymiz.

Vizual kontent

Nukusdagi yoshlar texnoparki

<https://youtu.be/WmAGuKsb8AI>

Yettinchi tezis: innovatsion fikrlash bu doimiy odat

Pedagog: Video ko‘rib amin bo‘ldingizki, innovatsiya – bir martalik jarayon emas. Bu kundalik qarorlar, savollar va kichik tajribalar orqali shakllanadigan fikrlash uslubi.

Shu bois innovatsion fikrlashni faqat yirik loyihalar yoki katta ixtirolar bilan bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri emas. U aynan kundalik hayotdagi kichik qarorlarda namoyon bo‘ladi: jarayonni tezlashtirishga urinish, ortiqcha bosqichni olib tashlash, yangi usulni sinab ko‘rish. Har bir kichik o‘zgarish tajriba sifatida qaralsa, vaqt o‘tishi bilan bu yondashuv odatga aylanadi va inson har bir vaziyatga avtomatik ravishda yangicha nigoh bilan qaray boshlaydi.

Demak, innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun alohida sharoit kutish shart emas. Muhimi – doimiy savol berish, mavjud yechimlardan qoniqmaslik va yangi variantlarni sinab ko‘rishga tayyor bo‘lish. Shu tarzda shakllangan fikrlash uslubi insonni nafaqat muammolarni hal qilishga, balki ularni oldindan ko‘ra olishga ham olib keladi. Natijada innovatsiya tasodifiy holat emas, balki ongli ravishda shakllantirilgan kundalik amaliyotga aylanadi.

Shu nuqtada qisqa debat tashkil etiladi. Mavzu: “Innovatsion fikrlash tug‘ma qobiliyatmi yoki o‘rganiladigan ko‘nikmami?” Talabalar ikki guruhga bo‘linib, o‘z pozitsiyasini asoslaydi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

Pedagog: Bugungi muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion fikrlash – bu muammoni ko‘ra olish, savol berish, sinab ko‘rish va natijadan xulosa chiqarish qobiliyatlarining tizimli uyg‘unligidir. Bu jarayon nazariy bilim bilan emas, amaliy tajriba orqali shakllanadi.

Innovatsion fikrlashsiz hayotda o‘lish, izlanish va yangilik yaratish bo‘lmaydi. Shuning uchun har kuni kamida bir fikrni tahlil qilib ko‘rish, kreativ mashqlar bajarish yoki yangiliklar bilan tanishish, o‘z g‘oyangizni boshqalar bilan baham ko‘rish bu katta fazilat va intellektual yetuklik belgisi.

Innovatsion fikrlash insonning kelajagini yoritadigan yo‘lchi yulduz. Bu jarayon insonni o‘ylashga, tahlil qilishga, ijod qilishga, muammolarga noodatiy yechim topishga undaydi. Ba‘zan bitta g‘oya inson hayotini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Yangilikka bo‘lgan mehr esa odamni umrbod izlanishga va rivojlanishga chorlaydi.

Hozirgi zamonda har bir mashhur ixtirochi, olim, tadbirkor yoki rahbarning ortida uning yoshligidan shakllangan innovatsion tafakkuri, izlanishga bo‘lgan muhabbati va noodatiy yechimlar topishga bo‘lgan intilishi turadi. Shu sababli innovatsion fikrlashni qadrlash, ijodiy g‘oyalarni rivojlantirish va yangilikka ochiq bo‘lish har bir talabaning burchidir.

Savollar: Innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun nimalar qilishimiz mumkin?

(Masalan: har kuni yangi g‘oya o‘ylab ko‘rish, muammolarni kreativ hal etish, ijodiy mashqlar bajarish, jamoaviy brainstorminglarda qatnashish, yangi bilimlarni o‘rganishda faol bo‘lish va hokazo.)

Bugundan boshlab o‘zingizning innovatsion fikrlash qobiliyatingizni yaxshilash uchun qanday amaliy ish boshlaysiz?

(Masalan: kuniga bir xil fikrlashdan uzoqlashish uchun kreativ mashq qilish, yangi texnologiyalar haqida o‘qish, noodatiy savollar berish, tajriba o‘tkazish, yangi loyihada ishtirok etish va hokazo.)

Talabalarning javoblari tinglanadi.

Pedagog: Talabalar, bir narsani unutmanglar, innovatsion fikrlash tafakkur yuragi, intellekt dvigateli. Yangicha o‘ylash, g‘oya yaratish va g‘oyani amaliyotga tatbiq etish yetuk, zamonaviy va intellektual insonning asosiy belgilaridan biridir.

Yangilik – har doim izlanishdan tug‘iladi. “Bu so‘zlar bizga shuni eslatadiki, izlanish, tahlil qilish, o‘rganish va ijod qilish kelajakni yaratadigan asosiy kuchdir.

Bugun sizlar innovatsiya, g‘oya yaratish, kreativ fikrlash va izlanish haqida juda chiroyli va mazmunli fikrlar aytdingiz. Har doim shunday bilimga chanqoq, izlanuvchan va intellektual jihatdan faol bo‘ling-ki, sizning g‘oyalaringiz jamiyatga naf keltirsin.

Xayr, sog‘ bo‘ling, innovatorlar!